



O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
BUXORO VILOYATI HOKIMLIGI
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MARKAZI BUXORO
VILOYATI HUDUDIV BO‘LINMASI**

O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an‘anaviy respublika ilmiy-
amaliy konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

“Durdona” nashriyoti

UO‘K 81(575.1)

81.2g(5U)

A 18

Yuldasheva D.N.

“O‘zbek tili va uning ta’limi taraqqiyoti: muammo va yechim” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. [Tekcm] 19-oktabr 2022-yil. / D/N/Yuldasheva. - Buxoro: " Durдона " nashriyoti, 2022. - 290 c.

KBK 81.2g(5U)

Mas’ul muharrir

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G‘aybullayeva N.I.**

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD) Ahmadova U.Sh.**

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma’lumotlari, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari shaxsan mas’uldirlar.

© Buxoro, 2022 *“Durдона” nashriyoti*

ISBN 978-9943-5871-0-6

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligiga 33 yil to‘lishi munosabati bilan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida mazkur respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi va anjuman materiallari to‘plam shaklida nashrga tayyorlandi.

Anjuman quyidagi sho‘balar bo‘yicha ish olib borishi ta’minlandi:

- O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari;
- Amaliy tilshunoslik masalalari;
- O‘zbek lug‘atchiligi muammolari;
- Davlat tilida ish yuritish masalalari;
- O‘zbek alifbosi va imlosi muammolari;
- Soha lingvistikasida yechimini kutayotgan muammolar;
- Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili ta’limi masalalari;
- Adabiyotshunoslikda so‘z masalasi.

Mazkur anjumanning maqsadi o‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzini oshirish va qo‘llanish ko‘lamini yanada kengaytirish, shuningdek, o‘zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi mavqeyini yanada yuksaltirish, davlat tilining rivojlanishi, tarixiy taraqqiyoti, istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, o‘zbek nazariy tilshunosligi, leksikologiya hamda leksikografiyasi, til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar va amaliy filologiyani rivojlantirish, o‘zbek tili ta’limi muammolari, davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyati masalalari borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy, amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TIBBIY TERMINLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Navruzova Muyassar Gaybullayevna,

BuxDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligiga oid tibbiy terminlarning kelib chiqish tarixi, etimologiyasi, uzoq tarixga ega bo‘lgan ba’zi birliklarning, hozirgi kunda tibbiyotda maxsuslashib, terminga aylanib, kishilarning kundalik turmushida faol qo‘llangani sababli, jonli tilimiz orqali bizgacha yetib kelganligini misollar orqali izohlashga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: *leksik-semantik, tarixiy-etimologik, metafora, semantik usul, yupqa to‘qima, termin, leksik resurslar*

O‘zbek tilshunosligida terminlarni o‘rganishga doir ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan. Ko‘plab ilmiy kitoblar, risolalar, lug‘atlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lug‘atlarning nashr etilishi fanimizning katta yutug‘i hisoblanadi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, “Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo‘mitasi olib borayotgan yirik hajmdagi ishlar atamashunoslik sohasining yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To‘nyuquq, Kultegin, Bilga xoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg‘ul bo‘lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo‘shiqlarida ham mavjud bo‘lgan.

Tibbiyotga oid ilmiy asarlar Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sino davrlaridan XX asrgacha arab, qisman fors-tojik tillarida yozilgan bo‘lib, ma’lum davrlar o‘tgach, sharoit taqozosi bilan ular turk, o‘zbek, tatar va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bu tarjimalarning aksariyati qo‘lyozma holda turli ilmiy dargohlarda saqlanmoqda. Roziy, Ibn Sino, Zaynuddin Jurjoniy, Nasriddin Tusiy va boshqalarning tibbiyotga oid asarlari turli davrlarda turk tiliga tarjima qilingan [1,25]. Uzoq tarixga ega bo‘lgan ba’zi fanlarning terminlari singari juda ko‘p so‘zlar hozirgi kunda tibbiyotda maxsuslashib, terminga aylanib, kishilarning kundalik turmushida faol qo‘llangani sababli, jonli tilimiz orqali bizgacha yetib kelgan: bosh-kalla, qo‘l,

oyoq, panja, yelka, tovon, quloq, burun, o‘pka, jigar, buyrak, taloq singari terminlar shular jumlasidandir. Tibbiy terminlarning asosiy qismi xilma-xil yozma manbalar, ilmiy, tarixiy-badiiy asarlar hamda turli davrlarda tuzilgan lug‘atlar orqali yetib kelgan. O‘zbek tilining barcha leksik resurslarida bo‘lgani kabi terminlarning ham o‘z boyish yo‘llari bor va ular tilimiz taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarga muvofiq keladi. Dunyoda chetdan so‘z o‘zlashtirmagan birorta ham til yo‘q. Hamma tillarda ham yangi tushunchani ifodalash uchun yo boshqa tildan tayyor termin qabul qilinadi, yo shu tilning o‘zida mavjud bo‘lgan so‘z yoki termindan foydalaniladi, yoki yangi termin yasaladi. Shu jumladan, biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan tibbiy terminologiya ham o‘zining ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Tibbiy terminlarni hosil qilishda xalq o‘zining kuzatishlariga, dunyoqarashiga tayangan. Ma’lumki, hozirgi o‘zbek tilida so‘z ma’nosining o‘zgarishi, ma’noning ko‘chishi, polisemantik so‘zning ayrim ma’nolari orasidagi bog‘lanishning yo‘qolishi, ayrimlarining maxsuslanishi orqali yangi so‘zning hosil bo‘lishi semantik yoki leksik-semantik usul bilan so‘z yasash deyiladi [1,22]. Tibbiy terminlarning tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tekshirish shuni ko‘rsatadiki, undagi ko‘pgina terminlar sof semantik usul bilan yasalgan. Masalan: bosh – gavdaning boshlanishi; oyoq – adoq-biror narsaning oxiri, so‘ngi, tugallanish qismi ma’nolarini anglatib, keyinchalik odam organizmi nomi sifatida qo‘llana boshlagan. Shuningdek, hozirgi kunda tamoman boshqa-boshqa so‘z hisoblangan qovurg‘a – qovoq, qopqoq (bosh qopqog‘i), qop (o‘t qopi) kabi terminlarning barchasi qoplamoq fe’lidan hosil bo‘lgan. Tomoq, tomir so‘zlari esa “tomchi holatida tush” fe’lidan hosil qilinganligi haqida mulohazalar bor, soqol-saqoq (badiiy asarlarda “iyak”) so‘zlari esa “saq”-“past tomonga yo‘nalmoq” [2.34] ma’nosini anglatib, asosdoshlik kasb etgan. Asliga ko‘ra polisemantik bo‘lgan ushbu so‘zlar ma’nolari orasidagi ichki bog‘lanish yo‘qolgan. Ushbu misollardan semantik usulda so‘z yasashning diaxronik xususiyatga ega ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, semantik usulda termin yasash boshqa sohalar terminologiyasiga nisbatan tibbiyotda keng qo‘llanadi. Buning asosiy sababi tibbiy terminlarning o‘tmish davrlarda xalq tili asosida yuzaga kelib, jonli so‘zlashuv tili bilan mustahkam aloqada rivojlanganligidadir. Shuning uchun ularda xalq tiliga xos bo‘lgan ko‘pdan ko‘p metaforik

qo‘llanishlar o‘z aksini topgan. Masalan: bosh kosasi, ko‘z kosasi, buyrak jomi, kalla qutisi kabi birikmalardagi kosa, jom, quti birliklari xalq tilida biror narsani solish uchun ishlatiladigan idish ma’nosini bildiradi. Tibbiyotda shu idishlar shakliga o‘xshagan a’zolar yoxud ularning qismlari mavjudki, bu, o‘z navbatida, metaforik o‘xshatish asosida quyidagi terminlarning yasalishiga sabab bo‘lgan. Chanoq – ko‘sakning bir xonasi. Qadimgi turkiy tilda “yog‘ochni o‘yib ishlangan tuzluq va shu kabi idish, kosa.. “Ma’no taraqqiyoti natijasida bu so‘zning “idish” ma’nosi asosida “ko‘z kosasi va boshqa kosasimon narsa”, shu jumladan, “ko‘sakning har bir xonasi” ma’nosi yuzaga kelgan. Ko‘z kosasi ma’nosi yuqoridagi ma’nodan oldin paydo bo‘lgan [2,1,412]. Metafora ma’no ko‘chishning o‘xshashlikka asoslangan turidir. Tibbiyotdagi chechak, ko‘richak, qoziq tish, quloq chig‘anog‘i, kiprik, ko‘z soqqasi, turk egari, do‘mboqcha singari terminlarni hosil bo‘lishida metaforadan foydalanilgan. Ular tashqi hamda shakliy o‘xshashlik asosida ma’nolari ko‘chib, termin hosil bo‘lishida ahamiyat kasb etgan. “Chechak” so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu termin Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida “чэкэк” shaklida ham uchraydi. Tibbiyotda ushbu termin odam va hayvonlarning o‘tkir yuqumli kasalligi. O‘rta asrlarda Roziy “Chechak va qizamiq haqida kitob” nomli asar yaratib, tibbiyot tarixida ilk bor ushbu kasallikni ta’riflab beradi. Kasallik turli toshmalar bilan kechganligi sababli shu nom bilan ta’riflanishga asos bo‘lgan. Ko‘richak – odam va sut emizuvchi hayvonlarda yo‘g‘on ichakning boshlanish qismi, o‘ng yonbosh chuqurchasida joylashgan bo‘lib, uning yonbosh ichakka qo‘shilish joyida yarimoysimon burmalari, qopqog‘i bor [6,25]. Terminga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uning bir tarafi yopiq bo‘lgani uchun shu nom bilan atalishiga sabab bo‘lgan. Ba’zi bir umumiste’ moldagi so‘zlar o‘xshashligigagina emas, balki vazifasiga ko‘ra (vazifadoshlik asosida) ham yangi termin yasalishiga asos bo‘lishi mumkin. Buni aksariyat semantik-sintaktik usulda termin yasashda ko‘rishimiz mumkin. “Xalta” so‘zi kichkina qop, qopchiq. Biror narsani solish, saqlash uchun mo‘ljallanadigan buyum [3,4,403]. Tibbiyotda ham xuddi shu vazifani bajaruvchi inson a’zosi xalta nomi bilan yuritiladi. Masalan: ko‘z yoshi xaltasi, o‘t qopi xaltasi, bo‘g‘im xaltasi kabi. “Parda” so‘zi o‘zbek tilida “xonani quyosh nuri, shamol va hokazolardan to‘shish yoki bezash uchun deraza, eshik va shu kabilarga tutiladigan gazlama, mato” [3,3,220].

Tibbiyotda esa “organizmda ayrim a’zolari qoplab, o‘rab yoki bir-biridan ajratib turadigan yupqa to‘qima” ma’nosida ishlatiladi: qorin pardasi, o‘pkaning plevra pardasi, homila pardasi, diafragma pardasi, suyak usti pardasi, ko‘zning shox pardasi singari. “Yugan” so‘zining adabiy tildagi ma’nosi “ot, eshak kabi uy hayvonlarini boshqarish uchun ular boshiga solinadigan, suvliq, tizgin va qayish tasmalardan yasalgan abzal” [3,5,73]. Tibbiyotda esa bu termin –cha qo‘shimchasi bilan birga qo‘llanadi: til yuganchasi, lab yuganchasi singari. Qafas-qush yoki hayvonlarni saqlash uchun maxsus yasaladigan xonacha [4,5,267]. Tibbiyotda esa gavdaning qovurg‘alar bilan o‘ralgan joyiga ham shu so‘zni ishlatamiz: ko‘krak qafasi. Qop – “sochiluvchi narsalarni solib qo‘yiladigan mato, chipta va shu kabilardan tikiladigan xaltadan katta qanordan kichik ro‘zg‘or buyumi [4,5,354]. Tibbiyotda, xususan, anatomiyada esa “odam va ko‘pchilik hayvonlarda o‘t yig‘iladigan a‘zo [6,111]: o‘t qopi. Kiyim-kechakka aloqador, ayni chog‘da, tibbiyot terminologiyasidan o‘rin olgan yana bir leksik birlik kamardir. Uning asl ma’nosi “Suv qirg‘og‘ida, jar chetida yoki tog‘ yonbag‘rida o‘pirilish natijasida paydo bo‘lgan g‘orsimon o‘piq joy , yo‘l”[4,2,305]. Tibbiyotda esa u odamning ayrim bo‘g‘inlarida, o‘zaro tutash ikki suyakning birida bo‘ladigan yarimshar shaklidagi o‘yiq joy, ko‘z ma’nosini ifodalaydi: yelka kamari, oyoq kamari singari. Darvoza – ona tilimizda “shahar va qo‘rg‘on, qal’a va shu kabilarga kiriladigan ikki tabaqali katta eshik, qopqa”[4,1.,60]. Xuddi shu so‘zni tibbiyotda jigar darvozasi, o‘pka darvozasi singari birikmalar tarkibida ko‘rishimiz mumkin. Tibbiy tushunchalarni ifodalashda xilma-xil qoliplar asosida yaratilgan birikma terminlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Birikma terminlar bilan biz yuqorida qisman tanishib o‘tdik. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining tibbiyot terminologik tizimida semantik usul, ya’ni leksik birliklarning ma’nosini ko‘chirish yo‘li bilan ko‘plab terminlarni hosil qilish mumkin. Bu jarayonda metaforaning o‘xshatish tamoyili muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirahmedova Z.O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni ta’rifi ta’rifiga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010. – 127 b.
2. Rahmatullayev Sh.O‘zbek tilining etimologik lug‘ati .– Toshkent , 2000. 600 b.
- 3.O‘zbek tili grammatikasi. –Toshkent,1975.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . – Toshkent, 2006.
5. Qosimov.A. Tibbiy terminlar izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent,2004.
6. Ruscha-lotinja-o‘zbekcha tibbiy terminlar lug‘ati. – Toshkent: Kamalak – Xazina,1996. 527b.
7. Tibbiyot qomusiy lug‘ati. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati,1994.- 291b.

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANI MATNINI AVTOMATIK-SEMANTIK RAZMETKALASH MASALASI

Xayrulloeva Gulasal Fayzullo qizi,
BuxDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida kompyuter va korpus lingvistikasi muammolarini o‘rganish jarayoni XX asrning 40-yillarida boshlanib, 60-yillarda jadallashdi, XXI asr boshlarida millionlab so‘zlardan iborat til korpuslari paydo bo‘ldi. Avtomatik tarjima, tezaurus, elektron lug‘atlardan foydalanish imkoniyati kengaydi, ilmiy-nazariy asoslari yaratildi, amaliyotda qo‘llana boshladi. Mazkur yangilanishlar axborot texnologiyalarini tilshunoslikka tatbiq etish bilan bog‘liq istiqbolli ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga yo‘l ochdi. Bu esa atov birliklarini korpus material sifatida razmetkalash tamoyillarini o‘rganish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Ushbu maqolada “O‘tkan kunlar” romanidagi metafora, sinekdoxa, leksik-frazeologik sinonimlarning razmetkalari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: *razmetkalash, avtomatik tarjima, tezaurus, elektron lug‘at, til korpusi, korpus material, sinekdoxa, metafora, teglash*

Dunyo tilshunosligida XXI asrga kelib, korpus lingvistikasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish harakati kuchaydi. Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida avtomatik tarjima sifatini yaxshilash, har bir tilga oid so‘zlarni lemmalash va razmetkalash nazariyasi, algoritmi hamda lingvistik ta‘minotini yaratish, matn tahlil qilish, razmetkalash, tarjima qilish dasturlari tuzish jahon tilshunosligida dolzarb masalaga aylandi. Tilshunoslikda, xususan, kompyuter lingvistikasi sohasida korpus birliklarini semantik teglash, teg modellari, razmetkalash

МУНДАРИЖА**Rasmiy ochilish**

Zaripov B.	Давлат тили – миллий тараққиёт ва соғлом тафаккур мезони	4
Xamidov O.X.	Тил – миллатнинг ўзлиги	7
Rustamov A.	Учинчи ренесансга давлат тили билан эришамиз	9
Muxammedov M.M.	Тил – миллат кўзгуси, миллат кўёши	15
Jamilova B.S.	Ona tiliga muhabbat – millat qudratiga dalolat	18
Quvvatova D.H.	Юрагимнинг остида сайраб турган булбулим	21
Samandarova G.Y.	O‘zbek tili – millat g‘ururi	24
Yuldasheva D.N.	Ўзбек тилидек сўзга, иборага, ибрату ҳикматга бой тиллар санокли	25

1-sho‘ba. O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari

Abuzalova M.Q.	Лингвистика ва соҳалар ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида	32
Axmedov A.R.	Qiyosiy-tarixiy metod	38
Asadov T.H., Mardonova S. O.	Badiiy asarda individual neologizm-semalar xususida	44
Hamdamova S. Sh.	“Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur”	49
Nazarova S.A., Xojiyeva M.Y.	[I~O] qurilmali birikmalarning badiiy nutqqa xoslanishi	53
Nazarova S.A., Yoqubova Sh.Y.	[I~F] qurilmali fe‘lli birikmalarning nutqiy imkoniyatlari	60
Po‘latova Z.M.	Tilning taraqqiyot bosqichlari	66
Rajabov D.Z., Bozorova G.Z.	O‘zbek tilidagi ayrim pleonastik birliklar tasnifi xususida	68
Sa‘dullayeva M.Q.	O‘zbek xalq maqollarida “muhabbat” konseptining antroposentrik tadqiqi	73
Safarova M.Z.	Etnotoponimlar xususida (Vobkent tumani misolida)	76
Tilavova M.A.	Frazeologik birliklarning badiiy matndagi o‘rni	80

2-sho‘ba. Amaliy tilshunoslik masalalari

Abuzalova M.Q., Boltayeva N.O`.	Tabassum –muloqotning universal vositasi sifatida	84
Adizova N.I.	Shoir Erkin Vohidovning antonimlardan foydalanish mahorati (<i>shoir dostonlari misolida</i>)	89
Ahmadova U.Sh., Latipova D.K.	Hunarmandchilik sohasida perifrazalar	95
Aminova M.	Insondagi ijobiy xarakter-xususiyatni baholovchi	99

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

Boboxonova F.M.	Internet tili xususiyatlarining umumiy tamoyillari	207
Malikova G.T.	O‘zbek televideniyaqidagi musiqiy-ko‘ngilochar Tonggi dasturlarda adabiy til me‘yorlari (muammo va yechim)	213
Navruzova M.G.	Tibbiy terminlar haqida ayrim mulohazalar	220
Xayrulloeva G.F.	“O‘tkan kunlar” romani matnini avtomatik-semantik razmetkalash masalasi	224
Yuldasheva D.N., Cho‘lijeva G.T.	Тиббий дискурса оҳанг ва сукут	232
7-sho‘ba. Ta‘lim bosqichlarida o‘zbek tili ta‘limi masalalari		
Jo‘rayeva B.M.	Bugungi kun ta‘limining dolzarb vazifasi	232
Po‘latova S.M.	Ona tili fanini o‘qitish	242
Jo‘rayeva Ch.	Ona tili darslarida o‘quvchining aqliy faoliyati	246
To‘yeva Z.N.	Ona tili mashqulotlarida ўқувчи нутқини ўстиришга қўйиладиган талаблар	252
Ro‘ziyeva M.I.	Oliy ta‘limda til mavzularini o‘qitish	256
Sattorova Z.	“Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”	261
8-sho‘ba. Adabiyotshunoslik masalalari		
Bekova N.J.	Навоийнинг туркий ва форсий ғазаллари бадииятига доир	265
Ражабов Д.З., Ахророва Н.А.	Ёшларнинг ижтимоийлашувида таълим ва кадрият масаласи	274
Норова Н.	Усмон Қўчқорнинг озарча баъзи таржималари хусусида	277
Bozorova G.B.	Abdulla Oripov she‘riyatida talmeh va uning ko‘rinishlari	282

O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-
amaliy konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

“Durdona” nashriyoti